

**TALABALARDA TOLERANTLIK TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI****Sultonov Ismoiljon Qodirjon o‘g‘li**Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning tolerantlik tafakkurini rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada tolerantlik tushunchasining turli ta‘riflari va uning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy hayotdagi roli ochib berilgan. Talabalarda tolerantlikni shakllantirishning asosiy yo‘llari sifatida ta‘lim dasturlariga tolerantlikni targ‘ib qiluvchi mavzularni kiritish, interaktiv dars uslublarini qo‘llash, turli madaniyatlarga hurmatni oshirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Tolerantlik, tafakkur, pedagogik strategiyalar, tarbiya, oliy ta‘lim, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу развития толерантного мышления студентов, обучающихся в высших учебных заведениях. В статье раскрываются различные определения понятия толерантности и ее роль в личной, социальной и профессиональной жизни. В качестве основных путей формирования толерантности у учащихся предлагается включение в образовательные программы тем, способствующих толерантности, применение интерактивных стилей уроков, организация мероприятий, направленных на воспитание уважения к различным культурам, развитие взаимодействия между учащимися.

Ключевые слова: толерантность, мышление, педагогические стратегии, воспитание, высшее образование, межкультурный диалог.

Annotation: This article is devoted to the development of tolerant thinking among students studying in higher education institutions. The article reveals various definitions of the concept of tolerance and its role in personal, social and professional life. The main ways of forming tolerance among students are the inclusion of topics promoting tolerance in educational programs, the use of interactive lesson styles, the organization of events aimed at fostering respect for different cultures, and the development of interaction between students..

Keywords: tolerance, thinking, pedagogical strategies, upbringing, higher education, intercultural dialogue

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida: globallashuv, integratsiyalashuv, axborotlashuv va universallashuv jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy,

ma'naviy-madaniy munosabatlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ularning milliy ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq mazmunini, qadriyat mo'ljallarini, paradigmalarni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu o'zgarishlar umuminsoniy manfaatlarni ta'minlashning ijobiy tajribalarini umumlashtirish asosida milliy manfaatlarni umuminsoniy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish hamda bu jarayonni yangi bosichga olib chiqishni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga quymoqda. Tolerantlik tafakkuri qadimdan o'zgarib turli xalq va millatlarni birniriga moslashtirish va o'zaro hamjihatlikda yashash talabi asosida rivojlanib kelgan [1]. Ammo ayni XXI asrdagi dunyo iqtisodiy, ma'naviy, madaniy munosabatlaridagi umumlashish va uning asosidagi globalizatsiya jarayonlari, davlatlardagi insonlararo va mafkuralararo ziddiyatlarning ortishi tolerantlikning insoniyat istiqbol taqdiri va umumbashariy bunyodkorlik g'oyalari belgilovchi zamonaviy tafakkurga aylantiradi.

Tolerantlik tushunchasi barcha Yevropa tillarida mavjud bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi ingliz, ispan, fransuz, nemis tillarida boshqalarga nisbatan sabr-bardoshli bo'lish, o'z fikri va muloxazalari, qarashlarining birovlaridan o'zgacharoq bo'lishi mumkinligini tushunish, birovlarining harakatlari va ongi o'zinikidan o'zgacha ekanligini tan olish kerak. Tarihiy jihatdan tolerantlik insonlarga hamdard bo'la olish hususiyatlari asosida Sharq sivilizatsiyasi tarkibida shakllangan. Qadimgi Xitoy, hind, misr, zardushtiylik madaniyatlarida shakllantirilgan bag'rikenglik g'oyalari keyinchalik islom falsafasi orqali qadimgi davrlardan ijodiy o'zlashtirilgan [2].

Asli tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din, millatlarga nisbatan bag'rikenglik va ehtiromli munosabatda bo'lish mezoni sifatida shakllanib kelgan. Chunki, tolerantlik urf-odat, madaniyat, qarash va mafkuralarga nisbatan xolis munosabat bildiradi, dunyo rangbarangligini tan oladi [3]. O'zbekistonda tolerantlik tushunchasini diniy bag'rikenglik, tinch-totuvlik hamda hamjihatlilikda yashash tamoillariga ko'proq etibor berilgan. Ammo aslida tolerantlik juda keng tushuncha sifatida o'rta osiyoda rivojlangan tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.

Xalqimiz o'zining boy va uzoq tarixi davomida juda ko'p voqeya, hodisalarni boshidan kechirgan, bu o'z-o'zidan uning moddiy, ma'naviy madaniyatida, ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy hayotida sezilarli iz qoldirgan. Tolerantlik va milliylikka shunday bir hodisa sifatida qarash kerakki, ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chish yoki joriy etish yo'li bilan, bir necha yilda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan, u tarix mahsulidir. Bu hodisalarning ildizini xalqimiz olis tarixining qaridan izlash lozim bo'ladi.

Tabiiyki, bu jarayonda yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash hamda, milliy mafkura va mustaqillik g'oyalari asoslangan holda shakllantirish va bo'yitib borishda sharq mutafakkirlarining tolerantlik haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o'z asarlarida bag'rikenglikka asos bo'luvchi axloqiy mezonlarni

targ'ib va tashviq qilgan buyuk nom sohiblaridan biri "Tanbeh g'ofiliyn" va "Bo'ston ul-orifiyn" asarlari muallifi Al-Faqih Abu Lays as-Samarqandiydir(910- 1003)

Ko'pchilik zamondoshlarimiz bu muttafakkirning nomini Alisher Navoiy tomonidan yozilgan tarjimaiy hol orqali eslaydi. Abu Lays as-Samarqandiyning merosi bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, faqat insongagina ato etilgan axloqiy go'zallik bo'lmish bag'rikenglikni tadqiqi, tahlili va talqiniga bag'ishlangan. Bag'rikenglik sifatleri yoshlar ongiga yanada chuqurroq singdirish dolzarb masalalardan biri bo'lib turgan hozirgi davrda, bu kabi muttafakkirlar ta'limotini o'rganish yanada muhimdir. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin bu asarlarning naqadar qimmatli ekanligini, ular asl-milliy-mintaqaviy qadriyatlar to'g'risida xikmat ekanligiga ishonchimiz komil bo'ladi. Ularda ilgari surilgan mehr muruvat kechirimlilik kabi insoniy bag'rikenglik sifatleri hozirgi kun yoshlari tarbiyasida muhim o'rin tutmoqda. Bizning nazarimizda, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashni quyidagi yo'nalishlarda olib borilsa yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1. Inson huquqlari haqidagi qonunlarni o'rgatish.
2. Odamlar bilan muomala qilish madaniyatini o'rgatish
3. O'zini vazmin tuta olishni o'rgatish.
4. Millatlararo muomala madaniyatini o'rgatish.

Shu ruhda tarbiyalangan yoshlar vatanparvarlik, bag'rikenglik, o'zgalarni hurmat qilish, mas'uliyatni sezish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda, milliy mafkurra va mustaqillik g'oyalariga asoslangan holda shakllantirish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, iymon, vijdon halollik, poklik mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, singari xislatlarni shakllantirish, har bir fuqoroning mustaqillikning ongli fidoisiga aylantirishda sharq muttafakkirlarining bag'rikeng haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etad.

Tolerantlik axloqiy, falsafiy va psixologik jihatlariga ega. Axloqiy jihatdan tolerantlik adolat, insonparvarlik, hurmat kabi qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, falsafiy jihatdan erkinlik, tenglik, demokratiya kabi tushunchalar bilan aloqador. Psixologik jihatdan tolerantlik shaxsning empatiya, o'zgalarni tushunish, stereotiplardan xoli bo'lish kabi xususiyatlari bilan bog'liqdir [4].

Tolerantlik hurmat, bag'rikenglik va hamdardlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'langan. Biroq, tolerantlik shunchaki passiv bag'rikenglik emas, balki boshqa odamlarning fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, ularning huquqlarini tan olishni anglatadi.

2. Talabalarda tolerantlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar. Talabalarda tolerantlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin.

Ichki omillar:

Talabalarning shaxsiy xususiyatlari (yoshi, jinsi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi) qiziqishlar va qadriyatlar, dunyoqarash.

Tashqi omillar: Ta'lim muhiti (o'quv dasturlari, darsliklar, pedagogik texnologiyalar)

Ijtimoiy muhit (oilaviy tarbiya, tengdoshlar ta'siri, ommaviy axborot vositalari). Madaniy omillar (milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar).

Talabalarda tolerantlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri ta'lim muhitidir. O'quv dasturlari va darsliklar tolerantlikni targ'ib qiluvchi mavzularni o'z ichiga olishi, pedagogik texnologiyalar esa talabalarda tanqidiy fikrlash va o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishi kerak.

3. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari va metodlari .

Talabalarda tolerantlikni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik strategiyalar va metodlarni qo'llash mumkin: Ta'lim mazmunini takomillashtirish (tolerantlikka oid mavzularni o'quv dasturlariga kiritish). Interaktiv ta'lim metodlarini qo'llash (munozaralar, rolli o'yinlar, loyihalar, keys-stadilar).

Talabalar o'rtasida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish (turli millat vakillari bilan uchrashuvlar, konferensiyalar, festivallar). Volontyorlik faoliyatiga jalb qilish (ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, xayriya tadbirlarini tashkil etish). Treninglar va seminarlar o'tkazish (tolerantlik, empatiya, nizolarni hal etish bo'yicha). Professor-o'qituvchilarning roli (shaxsiy namuna, pedagogik mahorat, tolerantlikka yo'naltirilgan munosabat)

Interaktiv ta'lim metodlari talabalarda tolerantlikni rivojlantirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Munozaralar talabalarga turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova M., & Tuychieva R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
2. Usmonova M. D., Ibrohimova G. A. EDUCATION OF CULTURE OF TOLERANCE IN A NATIONAL CHARACTER //Psixologicheskoye zdorovye naseleniya kak vaznyy faktor obespecheniya prosvetaniya obshchestva. – 2020. – S. 174-176.
3. Usmonova M. D., Parpiyev O. A. PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL HEALTH IN EDUCATION //Psixologicheskoye zdorovye naseleniya kak vaznyy faktor obespecheniya prosvetaniya obshchestva. – 2020. – S. 287-289 Otajonovna K.M., & Kizi A.K.G. (2021).

4. Pedagogical bases of formation of innovative culture of the educator of preschool educational institution. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 457–460.

